

## URMA ZARB CHOLG'ULARNING KELIB CHIQISH TARIXI VA QO'LLANILISHI

*Irnazarov Oybek Yuldoshovich*  
*Termiz Davlat Pedagogika Instituti*  
*Musiq ta'limi yo'nalishi o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Doira cholg'usining kelib chiqish tarixi uzoq o'tmishga borib taqaladi. Musiqachilikda dastlab urma zarbli cholg'ular paydo bo'lgan. Bular Nog'ora, chindovul, childirma, dovul, doiralardir. Qadim zamonlardan to hozirgi davrimizgacha bizga yetib kelgan doira cholg'u asbobi o'zgarmagan holda saqlanib kelmoqda.

**Kalit so'zlar:** O'rta osiyo xalqlari, Sharq xalqlari, Tojikiston va Uyg'ur xalqlari va O'zbekiston xalqlari.

O'rta osiyo va Sharq xalqlari qatori, o'zbek usullari, ya'ni ritmik yo'llari va ularning rivojlanish usullari alohida o'rin egallaydi. Eng ko'p tarqalgan urma zarbli musiqa asboblaridan, O'zbekistonda, Tojikistonda va Uyg'ur xalqlari, shu bilan bir qatorda, Sharqda o'zining shirali ovozigaga ega bo'lgan, musiqa cholg'u asbobi doira hisoblanadi.

Doira iborasi ba'zan "Dapp", "Childirma", "Chirmanda" deb yuritiladi. Xorazmda dapp, childirma ijrochini esa "Dappchi"-childirmachi deb aytadilar, Buxoroda doiradast, Farg'onada chirmandachi, Samarqandda esa doirachi deb yuritiladi.

O'zbek xalqi qadimdan doira asbobini juda ardoqlab kelgan. O'tmishda bu asbob sadolari ostida xalqni maydonlarga, to'y tomoshalarga, musobaqa kurashlarga va xar xil sayllarga chaqirganlar. Jumladan: "Xosil bayrami", "Uzum sayli", "Qovun sayli" kabi mavsumiy bayramlar keng tarqalgan.

Bayramlarda, madaniy marosimlarda ayniqsa karnay, sunray va nog'ora, doira kabi urma zarbli musiqa cholg'ulari keng qo'llanilgan. Buyuk Sharq mutafakkirlarining merosi, xalq cholg'ularini o'rganish sohasida ham tarixiy qimmatga ega. Abu Nasr Muhammad Farobiyning mashhur asari "Musiq haqida katta kitob" ("Kitob al-musiq, al-kabir") ulkan ahamiyatga ega. O'rta asr olimi bu kitobdan ikki xil musiqa ijrochiligi: ohangni inson ovozi (qo'shiq san'ati) va cholg'ular vositalarida qayta tiklashga ajratadi. Darvish Ali o'z davri (XVII asr) da mavjud bo'lgan cholg'u ansamblari va ularning ijrochilari haqida ma'lumot bergan. Saroyda 60 cholg'uchidan iborat ansambl bo'lgan. "Nog'ora xona" deb atalgan 60 kishilik cholg'uchilar ansamblini nog'orachi boshqargan. Darvish Ali misol tariqasida shunday dalilni keltiradi:

"Sulton Husayin" saroyida ansamblning rahbar mehtar va zifasini nog'orachi Sayid Ahmadbin mehtariy Miroqiy bajargan. "Nog'ora xona" nog'ora va damli musiqa

cholg'ularida kuy chalayotgan paytda ijrochilar joylashgan xona ko'zda tutiladi. Bizning jumhuriyatimizda doira ritmik usullarini dunyoga mashhur qilishda o'z xissasini qo'shgan Usta Olim Komilovning boy merosi avlodlar uchun katta maktab vazifasini o'tamoqda. Mashhur doirachilar G'ofur Azimov, To'ychi Inog'omov, Rahim Isaxo'jayev, Evner Barayev, Qahramon Dadayev, Ravshan Akbarbekov, Odil Kamolxo'jayev, Dadaxo'ja Sottixo'jayevlar ustaning anan'alarini davom ettirdilar.

Shuningdek Toshkent Davlat Konservatoriyasi dotsenti A. X. Leviyev ham "Doira uchun etyudlar" to'plamini yaratgan edi. Sam.DU. musiqa fakulteti dotsenti Ya. Haqqulov "Doira uchun pyesalar" to'plamini yaratganlar. A. Rasulov nomidagi Sam. DSBYu katta o'qituvchisi Asliddin Sirojev "Doira uchun pyesalar" yaratdilar, A. Ashrafxo'jayev "Doira sinfi bo'yicha xrestomatiya yozganlar".

### **Doiraning tuzilishi:**

Doira ko'rinishidan oddiy aylanma shaklida bo'lib, diametric taxminan 400 mm bo'lgan, gardishi ilgari uzum zangidan qilingan, so'ngi vaqtlarda yog'ochni egib yoki kichik bo'laklarga bo'lib, ularni bir-biriga ulab yasaladi. Doiraning gardishiga buzoq ba'zan toyni terisidan qoplangan. Gardish o'rtasiga qirqdan ortiq halqachalar taqiladi. Bu halqachalar doirani chalganda ijroga qoshimcha sado beradi. Bu halqachalarning nomi shing'iroq, shilshila deyiladi, shing'iroqlar mayda doira chashklida bo'lib, misdan va temir metallardan ishlab yasaladi. Doirada 2ta asosiy tovush bor. Biri past "bum" (xorazmda "gup") ikkinchisi baland "bak" (xorazmda "toq") deb yuritiladi. Ketma-ket kelgan ikkita qisqa tovush "bakko" yoki "bakka" (tak-tak) yoki (bak-bak) "taka" deb yuritiladi. Ilgarilari bum (gup) 1ta chorak notaga teng bo'lgan. Bak (tak) ham 1ta chorak nota hisoblangan. Bak-bak(tak-tak) 2ta choraklik notaga teng. Bakka (taka) esa 2ta 8 talik notaga teng. Agar takt o'rtasida pauza kelsa "Ist" so'zi qo'llanilgan. Masalan: bakka bum bakist bakabak.

30-yillardan so'ng doirausullari, ya'ni "bum" chiziqostiga "bak" esachiziqustigayozilib, ijroetiladiganbo'ldi. Bu doirausullarini A.Eyxorn, V.Leysok, N.Mironov, V.Uspenskiylar bir nota chiziqoralig'ida nota yo'lidayozganlar. Doirani tovush balandligi noaniq, ya'ni uning terisi qanday tortilganiga qarab sado beradi, aniq bir nota, ya'ni tovush, ovoz bir xil chiqmaydi. Bum bilan bak oralig'I kvarta intervaliga yaqinroq. Ijro xar xil usul bilan kelishi, barmoqlar harakatida tovushlar o'zgarishiga olib keladi.

Doira ijrosi, o'ng qo'l bilan chap qo'l harakatiga bog'liq, doirani qaysi yeriga ,gardish o'rtasiga yo chetiga yoki bo'lmasa gardishdan ozgina o'rtasiga yaqinroq urib cholish, o'ziga xos tovush chiqaradi. Ba'zan barmoqlar gametalldan yasalgan noxun taqilib chalinadi. Mana shunaqa ijro etilgan bum bilan bumni, bak bilan bakni farqi juda katta bo'ladi.

XX asrning 50-60-yillariga kelib, doira usullari A.I. Petrosyans tomonidan o'zgartirildi, Toshkent eksperimental laboratoriyasida tasdiqlanib, ko'pchilik

musiqashunos olimlar tomonidan 4 qatorlik doira usul yo'li jori yetildi va hozirgacha qo'llanilib kelinmoqda. Har bir qo'lning, ya'ni o'ng va chap qo'llarning ovozlari tovushlari alohida yoziladi.

Hozirda sitqi dildan xizmat qilib kelayotgan doirachilar: Dilmurod, Elmurod, Xolmurod Islomovlar, Rahmatillo Samadov, Ilhom Ikromov, Abbas Qosimov va boshqalar.

#### Nog'ora

Nog'ora-urib chalinadigan o'zbek xalq musiqasi asbobi hisoblanadi. Xalq cholg'ularining paydo bo'lish tarixi esa eramizdan avvalgi II ming yillikda dunyoga kelgan, deb taxmin qilingan. Musiqachilikda dastlab urma zarbli cholg'u asboblari paydo bo'lgan. Chunki eng qadimgi mehnat qo'shiqlari, shuningdek ovga chiqishlar ritmik tuzilishi bilan bevosita bog'liq bo'lgan. Nog'oraga o'xshash cholg'ular bilan shovqinli cholg'ular ham o'sha paytda paydo bo'lgan.

XV-XVII asr yozma yodgorliklari, tasviriy saan'atda va adabiy merosimizda ildizlari uzoq o'tmishga borib taqaluvchi musiqasi cholg'ularining asosiy tiplarini barqarorligini tasdiqlovchi boy manba berilgan. Ikki guruxga bo'lingan cholg'u ansambli mavjudligi ko'rsatilgan. Birinchi doyra va nay jo'rligida, ansambl (xonaki tipdan) ikkinchi damli va urma zarbli cholg'ular (karnay, sunray, bo'laman, doyra, nog'ora) ansambli. Ansamblning ikkinchi tipi ko'proq harbiy orkestr sifatida foydalanilgan. Buni quydagi satrlar tasvirlaydi: "Karnay va nog'oralar chalingi, saf tortgan sipohlar bir ovozda uch karra harbiy xitobni takorlaydilar. Toshkent Davlat konservatoriyasida ta'hsil olgan talabalar, urma zarbli cholg'ulardan hammasini mukammal o'rganadilar. Bularga doira, ksilafon, litavra katta nog'ora va hokazolar kiradi.

#### Nog'oraning

O'zbekistonimizda ijro etiladigan nog'ora asosan sapoldan yasalgan bo'lgan bo'lib ustiga echki yoki kiyik terisi qoplanadi. Nog'orani ko'pincha ikkita chalinadi. Bayramlarda, sayillarda to'y hashamlarda chalinadigan nog'oralar biroz kichikroq bo'ladi. Ikkalasi bir-biridan kavrta soziga farq qilishi kerak. Nog'ora o'zi aniq ma'lum bir sozga ega emas. Shunga ko'ra, tovushi ham aniq bir balandlikka ega emas. Nog'oralardan birini (kichigi) bak, yani baland tovush, ikkinchisi bum, ya'ni, past tovush beradi.

Nog'ora olov yoki oftobda qizdirilib, tovushi balandlashtiriladi. Turli bayram, xalq sayillarida katta nog'ora ishlatiladi. Buni qo'sh nog'ora ham yuritiladi. Nog'orani ikkita ingichka uzun kaltakcha (cho'p) bilan urib chalinadi. Nog'orada asosan ikkita tovush (bak va bum) bulganligi uchun, buning notalari bir chiziqda quyidagiga yoziladi. Chiziq tagidagi notalar bum, ustidagi notakar esa bak tovushini bildiradi. Nog'ora O'zbekistondan tashqari Tojikiston, Qirg'iziston va Xalqlarda ham qo'llaniladi. Surnay chalganda usulni nog'ora bilan saqlaydilar.

Nog'ora usullaridan biri "Shodyona" usulidir. Ikkinchi usuli "Bululcha" yoki "Bulujiy" usulidir. Uchinchi usuli ufor usulidir. To'rtinchi "Ducho'ba" tadeb ataladiki, ufor usulining tez juda chalinishidan iborat.

#### Safoyil

Safoyil – musiqa asbobi Xitoy, Uyg'ur xalq cholg'u asbob sifatida keng tarqalgan musiqa cholg'usidir. Safoyil cholg'usining ko'pincha raqsona, marshona kuylarda uchratish mumkin. Uyg'ur xalq raqislarida ham keng qollaniladigan musiqa cholg'usi hisoblanadi. O'zbekiston va Tojikistonda bu cholg'u asbobi keng qollanilib kelmoqda. Safoyil musiqa asbobi, tuzilishidan shiqildoqli urma zarbli cholg'u asbobi guruhidagi kiradi. Safoyil ikki bo'lak qattiq yog'och kaltakchasidan iborat bolob, bu kaltakcha mayda temir halqachalar taqilgan katta temir xalqachalarga o'rnashtiriladi. Safoyilni silkitib yelkaga urib shovqinli turli xil murakkab tovush chiqarishadi. Ikkita kaltakchasini uzunligi 400 mm ni tashkil etadi. Safoyil cholg'usini yelkaga urib va havoda tebratib har xil kerakli usullarni chiqaradi. "Soqiynoma" va "Qasqgarcha" kuylarida ham safoyil cholg'usi isjlatilib ritm berib kuchli hissanni tovush bilan yetkazib beradi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. M Xo'jageldiyeva Music as a Science and its peculiarities International Journal of Innovative Analyses and Emerging Technology 2021
2. M Xo'jageldiyeva Dutar national instruments and performance methods Analytical Journal of Education and Development, 2021
3. MAHFUZA ERGASH QIZI XO'JAGELDIYEVA Musiqa madaniyati fanining mazmuni hamda musiqaning bola tarbiyasida tutgan o'рни INTERNATIONAL JOURNAL OF DISCOURSE ON INNOVATION, INTEGRATION AND EDUCATION
4. Ходжагельдыева Махфуза Эргаш кызы, Машрабалиева Барно Машрабалиевна ИСТОРИЯ ПРОИСХОЖДЕНИЯ СЛОВА ДУТАР И СПОСОБЫ ЕГО ИСПОЛНЕНИЯ Новости образования: исследование в XXI веке
5. Khojageldiyeva Mahfuza Ergash qiz Panjiyeva Nilufar Kamol qizi The role of club activities in the development of students' musical abilities in general education schools Journal of Pedagogical Inventions and Practices 2022/7/13
6. Khojageldiyeva Mahfuza Ergash qizi, Chorshanbeyiv Suyunbek Nasriddin o'g'li, THE EMERGENCE OF NATIONAL POP ART IN UZBEKISTAN. *Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development*, 2022/6/30.
7. Khojageldiyeva Mahfuza Ergash qizi, Factors for Increasing Students' Musical Competence in Music Culture Classes *European Journal of Innovation in Nonformal Education* 2022/4/27
8. Khojageldiyeva Mahfuza Ergash Qizi, Chorshanbeyiv Suyunbek Nasriddin Ugli, THE HISTORY OF THE ORIGIN OF POP ART AND ITS PLACE IN UZBEK MUSIC IJTIMOIIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI

9. Khojageldiyeva Mahfuza Ergash qizi, Pardayeva Nilufar Kamol qizi MUSIC LESSONS THROUGH SCHOOL AND EXTRACURRICULAR ACTIVITIES ARE WAYS TO INCREASE STUDENTS' COPING SKILLS TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMİY JURNALI 2022/3/28
10. Khojageldiyeva Mahfuza Ergash qizi, Sayfiddinova Sevinch Akramovna Dutar National Instruments and Performance Methods TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMİY JURNALI
11. МЭ ХОДЖАГЕЛЬДЫЕВА, БМ МАШРАБАЛИЕВА ИСТОРИЯ ПРОИСХОЖДЕНИЯ СЛОВА "ДУТАР" И СПОСОБЫ ЕГО ИСПОЛНЕНИЯ ЭКОНОМИКА
12. Ochilov Ulug'bek Musurmonqulovich АКВАРШОННИНГ SAN'ATGA BO'LGAN E'TIBORI Новости образования: исследование в XXI веке 2022/11/1
13. Ochilov Ulug'bek Musurmonqulovich Buyuk akbarshohning yoshligi Ijtimoiy fanlarda innovasiya onlayn ilmiy jurnali 2022/6/21